

Aziz Vatan himoyachilari, qadrlı yurtdoshlar!



Sizlarni **Qurolli Kuchlarimiz tashkil topganligining 33 yilligi** va **14-yanvar - Vatan himoyachilari kuni** munosabati bilan samimiy tabriklayman!

Hurmatli Prezidentimiz boshchiligidagi mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida milliy armiyamiz nufuzi xalqaro maydonda kun sayin yuksalib borayotgani har bir O'zbekiston fuqarosining qalbiga ulkan g'urur bag'ishlaydi.

Osoyishta Vatanimizda buyuk ne'mat - tinchlik-xotirjamlik mangu barqaror bo'lsin. Yurtimizda har bir inson, har bir oila orzu-umidlariga erishib, farzandlarining rohat-farog'atini ko'rib yurishiga tilakdoshman.

Fursatdan foydalanib, Sizlarga mustahkam sog'lik, tinchlik va xotirjamlik tilayman. Har biringizning oilangizga fayzu baraka, hayotingizda zafar va ulkan yutuqlar yor bo'lsin. Yurtimiz tinchligi, xalqimiz osoyishtaligi va farovonligi yo'lidagi xizmatingiz doimo muvaffaqiyatlidir bo'lsin!

Yana bir bor bayramingiz muborak bo'lsin, aziz Vatan posbonlari!

**Ulug'bek Qosimov,
Surxondaryo viloyati hokimi**